

"Boshqaruv raisi kubogi" musobaqalari bo'lib o'tdi

// 27.08.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/boshqaruv-raisi-kubogi-musobaqalari-bo-lib-o-tdi>



O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yillik bayrami munosabati bilan hamda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va ularni ommaviy sport turlariga qiziqishini kuchaytirish maqsadida "Boshqaruv raisi kubogi" musobaqalari bo'lib o'tdi.

Musobaqalar D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahri filialining sport maydonlarida bo'lib o'tdi.

Qizg'in bahslarga boy o'tgan musobaqa bugun o'z nihoyasiga yetdi va natijalar quyidagicha bo'ldi:

Erkaklar o'rtasida mini-futbol bo'yicha:

- 1-o'rin - "Maxam-Chirchiq" AJ
- 2-o'rin - "Farg'onaazot" AJ
- 3-o'rin - "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ;

Ayollar o'rtasida voleybol bo'yicha:

- 1-o'rin - "Maxam-Chirchiq" AJ
- 2-o'rin - "Qizilqum fosforit kompleksi" AJ
- 3-o'rin - "Dehqonobod kaliy jamoasi" AJ jamoalariga nasib etdi.

Tantanalik taqdirlash marosimida "O'zbekimiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari Akobir To'xtayev

"Maxam-Chirchiq" AJ jamoasiga "Boshqaruv raisi kubogi"ni topshirdi. Shuningdek, sovrindorlarga pul mukofotlari taqdim etildi.







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati